

O'ZBEK TILI FRAZEOLOGIZMI TARKIBIDA O'ZLASHGAN QATLAM VA ULARNING JOMBOY TUMANI SHEVASIDAGI IFODASI

Musayeva Nigora Eshkuvvatovna

Ajiniyaz nomidagi NDPI o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs magistranti+998932014222, mnigora080@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tili frazeologizmi tarkibidagi o'zlashma so'zlar, ularning ahamiyati, asl lug'aviy ma'nolari hamda ibora tarkibidagi ma'nosi ochib berilgan. Tarkibida o'zlashma so'zlar bor iboralarning Jomboy tumani aholisi shevasidagi ifodasiga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Frazeologizmlar, o'z va o'zlashgan qatlam, arabcha so'zlar, forscha so'zlar, Jomboy tumani shevasi leksikasi.

Ma'lumki, xalqimiz tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu aloqalar o'zaro aloqada bo'lgan xalqning tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zaro ta'sir natijasida tilning barcha bo'limlarida: fonetika, leksika, grammatika kabilarda o'zgarishlar yuz beradi. Tildagi o'zgarish va rivojlanish tilning leksikasida kuchli bo'ladi. Ushbu maqolamizda o'zbek tili frazeologizmlarida o'zlashgan qatlamning ahamiyati, ba'zi frazalar va ular tarkibidagi o'zlashgan so'zlar hamda ularning Jomboy tumani shevasidagi ifodasi haqida so'z yuritimiz.

- Robbing kim?
- Robbim Alloh.
- Dining qaysi?
- Dinim Islom.
- Payg'ambaring kim?
- Payg'ambarim Muhammad s.a.v.
- Kitobing qaysi?
- Kitobim Qur'oni Karim.
- Qachondan beri musulmonsan?
- Al-misoqdan beri.

Yuqoridagi islomiy savol-javobda keltirilgan al-misoq so'zini nutqimizda mustaqil holatda qo'llamsak ham, uni ibora tarkibida juda ko'p uchratamiz va ishlatamiz. Masalan, almisoqdan qolgan, almisoqdan beri shaklida. Bu almisoqdan qolgan ibora Jomboy tumanida yashovchi aholi nutqida esa fonetik o'zgarishga uchrab, „alimsoqdan qolgan“, „alimsoqdan beri“ bo'lib yangraydi. Xo'sh, bu al-misoq so'zining asl etimologiyasi qanday? Tilimizga qayerdan kirib kelgan?Al-

misoq [arabcha, ahd, qasam; shartnoma, bitim]: almisoqdan beri (yoki buyon) Juda qadim zamonlardan beri. *Arava bo'lsa almisoqdan qolgan, yana sinibdi*. Oybek. Tanlangan asarlar.[1: 73.] Al-Misoq bu jamiki insonlarning Alloh taolaga iymon keltirib bergan va'dasidir. Almisoq Islom shariatida muhim aqida masalalaridan biri hisoblanadi. Imom Tahoviy rahimahulloh aqida matnida shunday yozadi: "Alloh taoloning Odam va uning zurriyotidan olgan va'dasi haqdir". Alloh taolo Qur'oni Karimda aytadi: "Robbing Bani Odamning umurtqa pog'onasidan, qiyomat kuni, bundan g'ofil edik, demasliklaringiz uchun, zurriyotlarini olib, o'zlariga o'zlarini guvoh qilib: «Robbingiz emasmanmi?» deganida «Xuddi shunday! Guvoh bo'ldik!» deganlarini esla" (A'rof surasi, 172) Alloh taolo bashariyat otasi – Odam alayhissalomni yerga tushirgach, uning pushtidan to qiyomatgacha tug'iladigan jamiki insonlar ruhini chiqargan va ularga "Men sizlarning Robbingiz emasmanmi?!" deb savol bergan. O'shanda hamma inson hali ularning jasadlari yaratilmasdan oldin (dunyoda kofir bo'lib yashaganlar ham) "Ha, Sen bizning Robbimizsan. Biz esa sening bandalaringmiz", deb iymon keltirgan va Allohga qullik qilishga va'da bergan. Allohning Tanho Iloh ekanligini tan olishgan va iqror bo'lib mo'min bo'lishgan. Alloh va insoniyat orasida bo'lib o'tgan shu ahdlashuv "Al-Misoq" deb aytiladi. Al-Misoqda Alloh Odam va uning zurriyoti fitratiga O'zining yagona ekanligini, ya'ni tavhid aqidasi singdirgan. Qachondan beri musulmonsan, deb so'ralganda "Al-Misoqdan beri" deb javob berilishida ham shu ahdnoma nazarda tutiladi. Dunyoga kelgan har bir chaqaloq, xoh u musulmon oilasida tug'ilsin yo kofir oilada al-Misoqdagi iymoni bilan mo'min bo'lib tug'iladi. Hatto mushrik kofirlarning chaqaloqlari ham. Shuning uchun ham ahli sunna e'tiqodiga ko'ra mushriklarning chaqaloqligida qazo qilgan bolalari almisoqdagi iymoni bilan jannatiy bo'ladi, deb e'tiqod qilinadi. Al-Misoqdagi va'dasiga sodiq qolganlar musulmon bo'lib yashaydi. Va'dasini buzganlar esa dunyo hayotida kofir bo'lishadi. Allohga bergan va'dasini unutib kufr yo'liga o'tganlarga Alloh al-Misoqdagi va'dasini eslatish uchun payg'ambarlarni yuborgan. "Bas, eslatiing! Siz albatta eslatguvchidirsiz. Ularga o'z hukmingizni o'tkazguvchi emassiz" (G'oshiya surasi, 21-22). Al-Misoq va'dasi qiyomat kuni kofirlarga qarshi Allohning hujjati bo'ladi. Kofir va mushriklar «Ey Alloh, biz Seni borligingni yoki birligingni bilmay qolibmiz, g'aflatda qolgan ekanmiz», deb uzr aytishmoqchi bo'lganda Alloh ularga Al-Misoq ahdnomasini eslatib qo'yadi. Darvoqe, xalqimiz orasida tarqalgan "Almisoqdan qolgan..." degan ayni shu tushunchalar asosida shakllangan, ya'ni judayam qadimiy degan ma'noda qo'llanadi.[3]

Vahima bosdi – qoʻrqinchli oʻy-xayollarga berilmoq. *Bu atrofda koʻknor qolmadi-ku, olti oydan keyin nima boʻladi? Said Jalolxonni vahima bosdi.* A. Qahhor. Bashorat.[2:62.] Vahima [arabcha; qoʻrquv, tahlika; xayolot; ruhiy bezovtalik] his-tuygʻu va kayfiyatning buzilishi; qoʻrquv bosish, xavfsirash, yurakni gʻul-gʻula bosishi natijasida yuzaga keladigan ruhiy holat. [1: 451.] Arab tilidan oʻzlashgan ushbu „vahima” soʻzi Jomboy tumani shevasi leksikasida „voyima”, „vayima”, „voyima bosdi”, „vayima qildi” kabi fonetik hodisaga uchrab qoʻllaniladi. Bulardan tashqari shevada „voyimachi”, voyimani uyi” kabi shakllari ham bor.

Oʻzbek tili frazeologizmi tarkibida arabcha soʻzlardan tashqari forscha soʻzlar ham oʻz oʻrnini egallagan. Buni biz quyidagi iboralar tarkibida uchratishimiz mumkin: „Bardosh bermoq”- chidamoq. *Ona shunday. Farzandim deb har qanday ogʻir daqiqalarda oʻzini tuta oladi, hammasiga bardosh bera oladi.* R.Fayziy. Choʻlga bahor keldi.[2: 32.] Ushbu iboradagi bardosh soʻzi fors tilidan oʻzlashgan: Bardosh (forscha; sabr) chidam, sabr, toqat, dosh berish quvvati.[1: 167.] Ushbu soʻz va ibora Jomboy tumani shevasida fonetik hodisaga uchrab, bardash berdi, bardashi yetmadi, bardashi tugadi kabi shakllarda qoʻllaniladi. Barq urmoq – yashnamoq, jilolanmoq. *Boqishlarida allaqanday mayinlik, mehr barq urardi.* R.Fayziy. Chanoqqa tomgan qon.[2: 33.] Ushbu iboradagi barq soʻzini nutqimizda mustaqil holatda ishlatmaymiz, faqatgina ibora tarkibida koʻrishimiz mumkin. Bu soʻz Oʻzbek tilining izohli lugʻatida quyidagicha izohlangan: Barq (forscha; chaqmoq, yaltillash) yashin, chaqmoq; yolqin, alanga.[1: 173.] Gardaniga olmoq – biror ishni bajarishga masʼul boʻlmoq. *Albatta, masʼuliyatning asosiy qismi Umrzoqovning gardaniga tushadi.* Sh.Rashidov. Boʻrondan kuchli.[2: 61] Iboradagi fors tilidan oʻzlashgan gardan soʻzini mustaqil holatda ham uchratamiz. Gardan (forscha; boʻyin) Gavdaning bosh bilan yelka orasidagi qismi; boʻyin; boʻyinning orqa qismi. *Polvon oʻrnidan turdi, nima qilishini bilmay, goh peshonasini uqalar, goh gardanini qashir edi.* S. Ahmad. Qadrdon dalalar.[1: 487.] Barq urmoq, gardaniga olmoq iboralari Jomboy tumani shevasi leksikasida hech qanday oʻzgarishsiz, xuddi shu shaklda qoʻllaniladi. Yer bilan yakson boʻlmoq – butunlay yemirilmoq, yoʻq boʻlmoq. *Ana shu qum boʻronlari barcha ekinlarni yer bilan yakson qilishi toʻgʻrisida nega lom demaydi?* Sh.Rashidov. Boʻrondan kuchli.[2: 80.] Ushbu iboraning „yer bilan bir boʻlmoq”, yer bilan bitta boʻlmoq” kabi sinonimlari ham mavjud. Yakson soʻzidagi „yak” bir raqamining fors tilidagi ifodasi hisoblanadi. Nutqimizda ushbu soʻzni mustaqil holatda qoʻllamaymiz. Lekin „yakdil”, „yakka”, „yagona” kabi soʻzlarimiz tarkibida uchratamiz. Mijja qoqmaslik – sira uxlamaslik, bedorlikda oʻtkazmoq. *Oyqiz tun boʻyi mijja qoqmay*

yig'lab chiqdi. Sh.Rashidov. Bo`rondan kuchli.[2: 180.] Ushbu ibora tarkibidagi „mijja” so`zi Jomboy tumani shevasi leksikasida mustaqil holatda uchramaydi. Bu so`zning asl lug'aviy ma'nosini ham ba'zilar tushunmaydi. Lekin ushbu iboradan ko`pchilik aholi o`z nutqida foydalanadi. *Nevaram Ikromjonga qarab, kechasi bilan mijja qoqmay chiqdim*(So`zlashuv nutqidan).Mijja (forscha; kiprik) kiprik. *Rangi siniqqan, xasta, ko`zi yumuq, mijjalari bir-biriga yopishib qolgandek.* S.Nurov. Durdona.[1: 589.] Payiga tushmoq – zimdan yurib, butun xatti-harakatini ta'qib qilmoq.*Oqsoqol uni kuyov qilish payiga tushib, tez-tez uyiga chaqiradigan bo`ldi.*S. Ahmad. Hukm.[2: 205.] Ibora tarkibidagi „pay” fors tilidagi oyoq ma'nosini anglatadigan „po”, „poy” so`zidir. Poy(forscha; oyoq, tovon) oyoq. *Poyiga yiqilib: - Momoqiz, men senga nima yomonlik qilib edim, - deyman!* T.Murod. Yulduzlar mangu yonadi.[1: 284.] Jomboy tumani shevasi leksikasida „poy” so`zi ibora tarkibida ham (payiga tushmoq, payini qirqmoq), mustaqil holatda ham qo`llaniladi.

So`xtasi sovuq – yoqimsiz, xunuk, badhazm. *Humoxon yomon ko`radi, shu so`xtasi sovuq Rahmonqulovni.* A. Muxtor. Tug`ilish.[2: 220.] Jomboy tumani aholisi nutqida „so`xta” so`zini mustaqil holatda uchratmaymiz, ushbu iboradan esa foydalanishadi. Fors tilidan o`zlashgan „so`xta” so`zi yuqoridagi ibora tarkibida ma'nosi o`zgargan holda keladi. Ya'ni istarasi sovuq, xunuk yuzli insonlarga nisbatan ishlatiladi. Bu so`zning asl lug'aviy ma'nosi esa boshqacha: So`xta – (forscha; kuygan, yondirilgan, tagiga olgan; xafa g'amgin) pilikning kuygan qismi. *Moyi tugab, piligi so`xta bo`lgan chiroq bir lip etib so`ndi.*[1: 621.]Tomdan tarasha tushganday – qo`qqisdan, kutilmagan holda va qo`pol tarzda. *Qiziq, tuppa-tuzuk yigit u yo`q, bu yo`q tomdan tarasha tushganday qilib, birdan sovchi yuborgani qanaqasi?* O.Yoqubov. Bahor kunlarining birida.[2: 235.] Jomboy tumani shevasi leksikasida ushbu ibora ham, ibora tarkibidagi fors tilidan o`zlashgan „tarasha” so`zi ham juda ko`p qo`llaniladi. Tarasha –(forscha; silliqlangan, tarashlangan narsa; yog'och paraxasi, qirindisi) yorib maydalangan o`tin. *Keyin u ayvondagi samovarni puflab, o`txonasiga tarasha tashlay boshladi.* A.Muxtor. Davr mening taqdirimda.[1: 676.] Tarasha so`zi fors tilidagi „taroshidan”- ya'ni „qirqmoq”, „kesmoq” felidan yasalgan sifatdosh „qirqilgan”, „kesilgan” dir. Yog'ochlarni qirqib, kesib, maydalab qilingan o`tinlarni tarasha deb atashgan. Narsa-buyumlarning qattiqlik sifatini yanada bo`rttirib, tarashaday qattiq, tarashaday qotibdi deb aytishadi. Keyinchalik qattiq so`zining ma'nosi tarasha so`ziga metonimiya usulida ko`chib, qattiq narsalarni, hatto xasis insonlarga nisbatan ham bu so`z qo`llanila boshlagan. Jomboy tumani aholisi nutqini ham bu ibora va so`z boyitib, bezab turadi. Tomdan tarasha tushganday iborasining asl ma'nosi ham

ko'chma ma'nosi yaratilishiga zamin bo'lgan. Qadimda qir qilgan, kesilgan o'tin(tarasha)larni tomda saqlashgan. To'satdan tomdan tushgan tarasha juda qo'pol, yoqimsiz tuyulgan, albatta. Haddan oshmoq – o'ziga ortiqcha erk berib yubormoq. *Ikkinchi bunaqa qilmang, indamasa haddingizdan oshib ketibsiz-a?* S.Ahmad. Muhabbat.[2: 307.] Jomboy tumani shevasi leksikasida ham ushbu iborani xuddi shu shaklda „haddan ziyod“ uchratamiz. Ibora tarkibiga e'tibor qaratsak, „had“ so'zi tilimizga o'zlashgan. Had (arabcha; daraja, chegara, chek; oxir, poyon, nihoya)chegara. Belgi, harakat va shu kabilarning o'lcham, daraja, miqdor jihatidan muayyan holati; chek, me'yor, nihoya. *Oyshabegim haddan ortiq uyatchan.* P.Qodirov. Yulduzli tunlar.[1: 107.] Gashtini surmoq – ayshini surmoq, biror narsadan zavq olish. Alimardon ikki oygacha ana shu bayram rohati bilan gasht surib yashadi. O'. Hoshimov. Bahor qaytmaydi. [1: 490.] Ushbu ibora Jomboy tumani aholisi nutqida ham ko'p uchraydi. Ammo ibora tarkibidagi o'zlashma so'z „gasht“ning asl lug'aviy ma'nosi ko'pchilikka noma'lum.

Gasht – (forscha; sayr, aylanib yurish) Biror narsadan olinadigan zavq, nash'uro namo. *Ba'zida esa dala shiyponida yotib qolardim, bunday uxlashning o'ziga yarasha gashti bo'ladi.* O.Yoqubov. Tilla uzuk.[1: 491.] Demak, bu so'zning fors tilidagi ma'nosi aylanib yurish, o'zbek tilidagi ma'nosi esa zavqlanish, rohatlanish ekan. Yana fors tilida sayr, tomosha ma'nosini anglatuvchi „gashtak“ so'zi o'zbek tiliga har hafta yoki har oy o'tkaziladigan ayollar yig'ini, bazmi ma'nosini anglatuvchi so'z bo'lib o'zlashgan. Toshkent, vodiy tomonlarda bu yig'in „gap“deb atalsa, voha taraflarda esa ko'proq „gashtak“ deb yuritiladi. Jomboy tumani ayollari leksikasida ham bu so'z muhim o'rin egallagan.

Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish tilimizning boyish manbalaridan biri hisoblanadi. Ana shu o'zlashmalarning asl lug'aviy ma'nosi, etimologiyasini, turli shevalardagi ifodasini bilish biz tilshunoslarning muhim vazifamizdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Madvaliyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent. O'qituvchi, 1978.
3. Tojiboyev B. Al-misoqni bilasizmi? Aniq.uz, 13.11.2019.